



ACADEMIC SPECTRUM

3-Son (2026-yil, Mart)

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

BUXORO - 2026



ACADEMIC SPECTRUM

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

№3-Son (2026-yil, Mart)

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy
komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi
№1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan**



BOSH MUHARRIR:

Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor
Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va
texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim
instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Eko Sri Margianti - Gunadarma universtiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor (Indoneziya).

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni
takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası mudiri).

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro
davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası dotsenti).

Ganjiyev Feruz Furqatovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro
davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası dotsenti).

Ismatova Dilafuz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası dotsenti).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrası dotsenti).

Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası dotsenti).

Mas‘ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahan Oybek o‘g‘li – Buxoro davlat universiteti
Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi



EDITOR-IN-CHIEF:

Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Kuleshov Valery Vladimirovich — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Andrienko Elena Vasilyevna — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

Romm Tatyana Aleksandrovna — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Eko Sri Margianti — Rector of Gunadarma University, Doctor of Economic Sciences, Professor (Indonesia).

Zarirov Lochin Rustamovich — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improving Educational and Methodological Activities).

Nazarov Akmal Mardonovich — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Psychology, Bukhara State University.

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

Ganjiyev Feruz Furqatovich — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

Mukhlisov Sodiqjon Saidjonovich — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Department of Information Systems and Digital Technologies, Bukhara State University.

Tilavov Mukhtor Hasan o‘g‘li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

EXECUTIVE SECRETARY:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Ахмадов Назирджон Рахмат угли
доктор философии по психологии (PhD), доцент.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

Андриенко Елена Васильевна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационного и технологического образования, г. Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарного и социального образования, г. Новосибирск, Россия).

Еко Sri Margianti — ректор Университета Гунадарма, доктор экономических наук, профессор (Индонезия).

Зариров Лочин Рустамович — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления по совершенствованию учебно-методической деятельности).

Назаров Акмал Мардонович — доктор психологических наук (DSc), профессор, заведующий кафедрой «Психология» Бухарского государственного университета.

Рустамов Шавкат Шухрат угли — доктор психологических наук (DSc), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Ганджиев Феруз Фуркатович — доктор психологических наук (DSc), доцент кафедры психологии Бухарского государственного университета

Исматова Дилафруз Туймуратовна — доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Мухлисов Содикжон Саиджонович — доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент кафедры «Информационные системы и цифровые технологии» Бухарского государственного университета.

Тилавов Мухтор Хасан угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:

Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Rajabov Elshod Erkinovich
Navoiy davlat universiteti doktoranti

“ILTIFOT” NUTQIY AKTINING BADIY MATNDA VOQELANISHINING FREYM MODELINI TAHLILI

Annotatsiya. Zamonaviy tilshunoslikda turli lisoniy sathlarning muloqot jarayonida shakllanishini tahlil qilish, ularning semantik-struktur xususiyatlarini belgilash navbatdagi dolzarb masalalardir. Nutqiy muloqot jarayonining muayyan bir ko‘rinishini modellashtirish freym tahlili orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa, freym tahlili badiiy matnning antroposentrik tamoyil asosida tadqiq qilish uchun mukammal vositadir. Badiiy matnda verballashgan iltifot aktining freym modelini ishlab chiqqan holda tahlil qilish orqali nutqiy muloqot faoliyatining kognitiv xaritasini yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: nutqiy muloqot, antroposentrik tamoyil, nutqiy akt, badiiy matn, freym, freym modeli, freym modeli tahlili, lingvokognitiv tadqiq, “iltifot” nutqiy akti, kommunikativ maqsad, kommunikativ vaziyat, kommunikativ natija.

ФРЕЙМОВАЯ МОДЕЛЬ АНАЛИЗА ПРОЯВЛЕНИЯ РЕЧЕВОГО АКТА «ВЕЖЛИВОСТЬ» В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация. В современной лингвистике одной из актуальных проблем является анализ формирования различных языковых уровней в процессе коммуникации и определение их семантико-структурных особенностей. Моделирование определенного вида речевой коммуникации осуществляется с помощью фреймового анализа. Особенно фреймовый анализ является эффективным инструментом для исследования художественного текста на основе антропоцентрического принципа. Анализируя художественный текст через разработку фреймовой модели вербализованного акта вежливости, появляется возможность создания когнитивной карты речевой коммуникативной деятельности.

Ключевые слова: речевая коммуникация, антропоцентрический принцип, речевой акт, художественный текст, фрейм, фреймовая модель, анализ фреймовой модели, лингвокогнитивное исследование, речевой акт «вежливость», коммуникативная цель, коммуникативная ситуация, коммуникативный результат.

FRAME MODEL ANALYSIS OF THE REALIZATION OF THE ‘POLITENESS’ SPEECH ACT IN LITERARY TEXT

Abstract. In modern linguistics, analyzing how different linguistic levels are formed in the process of communication and determining their semantic-structural features are among the most pressing issues. Modeling a specific type of speech communication process is carried out through frame analysis. In particular, frame analysis serves as an effective tool for studying literary texts based on the anthropocentric principle. By analyzing a frame model of the speech act of “compliment” as verbalized in a literary text, it becomes possible to create a cognitive map of speech communication activity.

Keywords: speech communication, anthropocentric principle, speech act, literary text, frame, frame model, frame model analysis, linguocognitive research, the speech act of “compliment,” communicative goal, communicative situation, communicative outcome.

Hozirgi kunda tilshunoslar lingvistik kategoriyalar asosida hosil bo‘lgan konseptlar tasnifi va ularning kognitiv xususiyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanmoqdalar. Til hodisalariga kognitiv yondashuvning rivojlanishi uni bizning ongimiz va aqlimizning konseptual hamda kognitiv tuzilishlaridagi ma’lumotlar manbayi sifatida tushunishga yordam beradi. Lingvokognitiv tadqiq orqali til tizimining axborotni qayta ishlashdagi roli nutq yaratilish va idrok etilishi nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Shunday ekan, tilni bilish mexanizmi, bilimlarni aks ettirish, saqlash va uzatish, lisoniy bilimlarni modellashtirish (kognitiv xaritasini yaratish) kabi navbatdagi muammolar yechimi bizni o‘z-o‘zidan lingvokognitiv tadqiqning boshqa metodlariga murojaat qilishga undaydi.

Antroposentrizm doirasida nutqiy aktlarning badiiy matnda voqelanishi masalasi muallif, qahramon va kitobxon oʻrtasidagi murakkab kommunikativ munosabatlarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, iltifot nutqiy akti badiiy matnda nafaqat muloqot vositasi, balki muloqot ishtirokchilari xarakterini ochish, ijtimoiy maqomini belgilash va milliy-madaniy qadriyatlarni aks ettirish vazifasini ham bajaradi. Badiiy matnda iltifot nutqiy akti koʻpincha kommunikativ vaziyat, nutqiy etiket meʼyorlari va kommunikativ intensiya bilan bogʻliq holda yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham iltifot ifodasini faqat lisoniy birliklar doirasida emas, balki uni tashkil etuvchi kognitiv komponentlar majmui sifatida tadqiq etish zarurati kelib chiqadi.

Mazkur holatda freym modeli iltifot nutqiy aktining badiiy matndagi voqelanish mexanizmini ochib beruvchi samarali tahlil vositasi sifatida namoyon boʻladi. Iltifot nutqiy akti freym modelida adresant va adresat oʻrtasidagi muayyan kommunikativ vaziyatda tashkil topgan strukturaviy sxema sifatida voqelanadi.

Maʼlumki, inson har qanday axborotni qabul qilish jarayonida oldindan tayyor strukturalardan foydalanishni va mazkur qolipli tuzilmalar axborotni eslab qolish, xotirada saqlash vazifasini yengillashtiradi. Demak, inson xotirasida iz qoldirgan oldingi tajriba yangi axborotning faol idrok etilishiga imkon beradi.

Kognitiv tilshunoslikda konsept atamasi bilan bir qatorda qoʻllanib kelayotgan tushunchalardan biri **freym** boʻlib, u ingliz tilida “ramka”, “qolip”, “andoza” kabi maʼnolarni anglatadi. Mazkur atama birinchi marta Ch.Fillmor tomonidan tilshunoslikka tatbiq etilgan. Ch.Fillmor “freym” tajribani andozaga soluvchi kognitiv tuzilma boʻlib, lisoniy birliklar vositasida shakllanishini aytadi: “freymlar soʻzlar bilan ifodalangan konseptlarni tushunishni taʼminlaydigan kognitiv strukturalardir”.¹

Freym murakkab bilim tuzilmasi sifatida maʼnoni anglash imkonini beradi, ular til birliklarini tushunish va qoʻllash uchun zarur boʻlgan fon bilimni taʼminlaydi. Ch.Fillmor freymlarni tushunish modeli sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, maʼno u bilan bogʻliq boʻlgan freymdan mustaqil holda anglanishi mumkin emas. Freymlar bilimni ifodalashning asosiy usuli hisoblanadi, biroq ular inson tajribasining uzluksiz ravishda boyib borishi natijasida doimiy ravishda oʻzgarib va takomillashib boradi.²

Freym muayyan bir tushunchaning konseptual verballashuvini va inson kognitiv faoliyatining mexanizmini ochib beradigan model hisoblanadi. Sh.Safarov “Kognitiv tilshunoslik” nomli risolasida “freym” kechayotgan voqea-hodisaning aksi boʻlib, birgalikda harakatga tushadigan va bir-birini “qoʻzgʻatadigan” mantiqiy idrok elementlarining oʻzaro munosabati asosida yuzaga keladigan tuzilma ekanligini eʼtirof etadi hamda buning natijasida freym koʻp qismli va koʻp tabaqali voqea – tuzilma koʻrinishini olishini uqtiradi.³

Sh.Safarovning talqiniga koʻra, “freym” tushunchasi voqealar kechimini tasvirlashda birmuncha qulayliklar tugʻdiradi. Freym nazariyasi kognitiv tilshunoslikka xos boʻlgan maʼnoning qomusiy hodisa sifatida qarash anʼanasi talablariga toʻliq javob beradi. Muloqot muhitining aniq bir koʻrinishini modellashtirish freym tahlilining ustuvor jihatlaridan biridir. Til tabiatining maʼno ifodasiga xoslangan jihatlaridan xabardor boʻlish uchun, bir tomondan, muloqot matnida u yoki bu koʻrinishda namoyon boʻladigan voqelik parchasini qolipli tasvirlash malakasiga ega boʻlish lozim boʻlsa, ikkinchidan, ushbu tasvirda lisoniy bilimning voqelanishini ham aks ettirish talab qilinadi. Freymlar muloqot matnining mazmunini anglashni osonlashtiradi. Ular asosidagi tahlil matnlarni tasniflash, uslubiy belgilarini aniqlashga imkon beradi.⁴

D.Xudoyberganovanning fikricha, freym u yoki bu tipik vaziyatning keng hajmli prototipi boʻlib, matn yaratilishi jarayonida kognitiv kontekst vazifasini bajaradi.⁵

¹ Joʻrayeva M. Fransuz va oʻzbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Toshkent, “Fan”, 2016, 47-bet.

² D.Ashurova, M.Galiyeva. Cognitive linguistics. Toshkent, 2018, p 25.

³ Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, “Sangzor”, 2006, 45-bet.

⁴ Safarov Sh. Semantika. Toshkent, “OʻzME”, 2013, 243-bet.

⁵ Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent, “Fan”, 2013, 15-bet.

“Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da keltirilishicha, freym – muayyan tushuncha atrofida uyushgan bilimlarning mazmun birligi. Freym tez-tez takrorlanib turuvchi ma‘lum bir vaziyat hamda uning tuzilishi haqidagi bilim va fikrlarni uzatuvchi kognitiv modeldir.⁶

Sh.Usmonovanning talqiniga ko‘ra, freym u yoki bu obyekt yoxud hodisani tasvirlovchi o‘lchovlar tizimini ifodalaydi. Fanda modellashtirilgan aniq hodisalar, odatda, freym tamoyiliga ko‘ra tavsiflanadi. Har qanday nutq freymining tuzilishida nutq subyekti, nutq obyekt yoki adresat, motiv yoki ehtiyoj, niyat yoki nutqiy maqsad, nutqiy muloqotning mazmuni va predmeti, lisoniy yoki semiotik vositalar tavsifi e‘tiborga olinadi.⁷

M.Jo‘rayeva esa o‘z monografiyasida freym haqida olimlarning nazariy qarashlarini umumlashtirgan holda, atamaga quyidagicha ta‘rif beradi:

Freym bu – turli xil axborot va situatsiyalarni universal sistema tarzida bayon qiluvchi, kognitiv-struktur tiplari asosida standart bilimlar majmuini har xil modellar va har xil til birliklari yordamida ifoda etuvchi, ko‘p komponentli konseptdir. Freymlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri nutqning muloqot jarayonida ishtirok etadi va ekstralingvistik bilimlar dunyosini o‘zida aks ettiradi. U inson ongida ma‘lumotlarni saqlash yo‘lidir. Freymlar insonning umri davomida yig‘gan ijtimoiy-madaniy ma‘lumotlariga asoslanadi.⁸

Demak, tilshunoslik orqali biz til qanday qilib konseptlarni kodlashtirilishini tahlil etamiz. Bu ma‘no eksplikatsiyasi va freym tahlili hamda konseptual analiz, konseptual metaforalar tahlillari yordamida amalga oshiriladi.⁹

Xullas, lisoniy tafakkur faoliyati jarayonida hosil bo‘ladigan kognitiv tuzilmalarni tadqiq qilishning keng tarqalgan usullaridan biri freym tahlili metodidir. Mazkur tahlil ma‘no qanday qolip asosida tashkil topishini aniqlashga qaratiladi, ya‘ni voqea-hodisa, holat yoki nutqiy vaziyat tayyor bilimlar tuzilmasi orqali ochib beriladi. Freym tahlili badiiy matnda yashirin kognitiv tuzilmalarni aniqlaydi, nutqiy birliklarning vaziyatga bog‘liqligini ko‘rsatadi, bu orqali matnning antroposentrik mohiyatini namoyon qiladi.

Badiiy matnda “iltifot” nutqiy aktining freym tahlili quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- qahramonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatni ochadi;
- tarixiy davrga xos etiket va mentalitetni ko‘rsatadi;
- iltifotning badiiy funksiyasini aniqlaydi;
- muallif dunyoqarashini aks ettiradi;
- iltifot faqatgina so‘z (lisoniy birliklar) vositasida emas, balki ijtimoiy vaziyat modeli sifatida ko‘rishga yordam beradi.

“Iltifot” freymi bu – maqtov, e‘tirof, hurmat ifodalovchi nutqiy vaziyatning kognitiv modeli bo‘lib, quyidagi slotlar (tugunlar)dan tashkil topadi:

- adresant – iltifot ko‘rsatuvchi shaxs;
- adresat – iltifot yo‘naltirilgan shaxs;
- obyekt – iltifot asoslangan jihat, xususiyat (jasorat, go‘zallik, xizmat kabi);
- nutqiy ifoda shakli – iltifotni yuzaga chiqaruvchi lisoniy (leksik, morfologik, sintaktik vositalar) birliklar;
- kommunikativ maqsad – iltifotdan ko‘zlangan niyat (yaqinlashish, ko‘ngil olish, hurmat bildirish);
- kommunikativ vaziyat – iltifot nutqi qo‘llanayotgan makon va zamon;
- kommunikativ natija – iltifotning ta‘siri qanday natijaga ega bo‘lishi.

Demak, “iltifot” freymi quyi subfreymlar, ya‘ni komponentlar bilan to‘ldirilgan slotlardan iborat bo‘ladi. Freymni tashkil etuvchi barcha slotlar o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘ladi va bir-

⁶ Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, “Bookmany print”, 2024, 25-bet.

⁷ Usmanova Sh. Psixolingvistika. Toshkent, “Universitet”, 2014, 3 – 4-betlar.

⁸ Jo‘rayeva M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Toshkent, “Fan”, 2016, 53-bet.

⁹ Rahmatova M. Olamning estetik manzarasi: qadriyatlar, madaniyat va til. Махачкала, Издательство “Апробация”, 2021, 87-bet.

birini taqazo etadi. Har bir slot muayyan bir vaziyatning shart-sharoitlarini ko‘rsatadi hamda o‘ziga xos belgi-xususiyatlar majmuyiga ega bo‘ladi.

Biz ham yuqorida qayd etilgan freym modeli slotlari asosida tarixiy mavzudagi badiiy asarlardan olingan matnlarda voqelangan “iltifot” nutqiy aktining kognitiv modelini ishlab chiqishga harakat qilamiz. Zero, har qanday matn muayyan bir freym ifodasidir.

Davrlar o‘tishi bilan har bir xalq va jamiyatning o‘ziga xos milliy va umuminsoniy qadriyatlari yuzaga kelgan va avloddan avlodga o‘tib kelgan. Shu tariqa milliy-madaniy qadriyatlar shakllana borgan. Ular, o‘z navbatida, inson tafakkurida aksiologik bilim zaxirasi bo‘lib xotirada muhrlanadi va mental birlik freymlarni hosil qilishda ishtirok etadi.

“Ulug‘bek xazinasi” romanida Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchining o‘zaro muloqoti orqali Ulug‘bek oddiy bir xalq vakiliga hukmdor sifatida emas, balki shogirdiga nutqiy iltifot ko‘rsatgan bir ustoz sifatida gavalantiriladi:

Mirzo Ulug‘bek qo‘llarini shogirdining yelkasiga qo‘ydi.

– *Haq taolloga shukurkim, o‘z pushtikamarimdan bo‘lgan farzandlarimdan yolchitmasa-da, senday shogird ato qildi... – Mirzo Ulug‘bek qaltiragan qo‘llari bilan Ali Qushchini quchoqlab, peshanasidan o‘pdi...*

Ustod bilan shogird ko‘z yoshidan tillari lol, qattiq quchoqlashganlaricha jimgina qotib qoldilar. (O.Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi)

Mazkur parchada aktuallashgan “iltifot” aktining freym tahlili quyidagicha bo‘ladi:

- adresant (iltifot ko‘rsatuvchi shaxs): humdor (Mirzo Ulug‘bek);
- adresat (iltifot yo‘naltirilgan shaxs): shogird (Ali Qushchi);
- obyekt (iltifot asoslangan jihat, xususiyat): shogirdning ustozga bo‘lgan sadoqati;
- nutqiy ifoda shakli (iltifotni yuzaga chiqaruvchi lisoniy birliklar): *Haq taolloga shukurkim, senday shogird ato qildi;*
- kommunikativ maqsad (iltifotdan ko‘zlangan niyat): ustozning o‘z shogirdidan faxrlanishi, unga sadoqatli bo‘lganidan minnatdor bo‘lishi;
- kommunikativ natija (iltifotning ta’siri qanday natijaga ega bo‘lishi): ustozning shogirdiga qilgan iltifoti ular o‘rtasidagi ishonch, sadoqat, mehr-oqibat tuyg‘ularini yana-da mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Yulduzli tunlar” romanida Qutlug‘ Nigor xonim birinchi marta muvaffaqiyatsizlikdan keyin alam azobidan qiynalayotgan hamda yana Samarqand yurishini boshlamoqchi bo‘lgan Boburni bu yo‘ldan qaytarish niyatida bo‘ladi. Ona va o‘g‘il o‘rtasidagi nutqiy muloqotda bu maqsad iltifot harakati vositasida aktuallashadi:

Qutlug‘ Nigor xonim endi o‘n besh yoshga kirgan o‘g‘lining bu talashlar va adovatlarga aralashmasdan, o‘z mulkida osoyishta hukm surishini istardi. U Boburning alamdan o‘zgarib ketgan yuziga onalarcha qayishib qaradi-yu, unga joni dilini bergisi kelib gapirdi:

– *Boburjon, so‘zimga ishonib, bu besh kunlik dunyo sizning kuyunishingizga arzimaydir!*

Onasi o‘g‘lini podshoh bo‘lmasidan oldingi nomi bilan atab, mehri tovlanib gapirgani Boburga juda yoqimli tuyuldi. Bir lahza u o‘zini mehribon bir onaning beg‘am, betashvish bo‘taloq o‘g‘lidek sezdi-yu, yelkasidagi katta yuk yerga tushgandek yengil tortdi. (P.Qodirov. Yulduzli tunlar)

Ushbu matn orqali anglashilgan “iltifot” ifodasi esa quyidagicha freym tahliliga ega bo‘ladi:

- adresant (iltifot ko‘rsatuvchi shaxs): ona (Qutlug‘ Nigor xonim);
- adresat (iltifot yo‘naltirilgan shaxs): farzand (Bobur);
- obyekt (iltifot asoslangan jihat, xususiyat): farzandining jasurligi, yosh bo‘lishiga qaramasdan davlat ishlarini yuritishga chanqoqligi;
- nutqiy ifoda shakli (iltifotni yuzaga chiqaruvchi lisoniy birliklar): *Boburjon* (ona hukmdor bo‘lsa-da farzandini erkalab ismi bilan murojaat qilishi)
- kommunikativ maqsad (iltifotdan ko‘zlangan niyat): onaning farzandini xavf-xatarlardan qaytarish va o‘z yurtida osoyishta yashashiga ko‘ndirish;
- kommunikativ natija (iltifotning ta’siri qanday natijaga ega bo‘lishi): mehribon onaning erkalab gapirganini eshitgan farzandning ruhiy kechinmalarida o‘zgarish bo‘ladi.

“Ulug‘bek xazinasi” romanida Mirzo Ulug‘bek keksalik chog‘ida oshiq bo‘lib qolgan qiz – Bibi Yulduzga o‘z nutqida xushmuomalalik va iltifot bilan munosabatda bo‘ladi. Ular o‘rtasidagi muloqot jarayonida Mirzo Ulug‘bek nutqida juda ta’sirchan va obrazli jumlar bilan oliyjanoblik ko‘rsatadi:

Mirzo Ulug‘bek yuragi yana tuz sepganday achishib, qizning ikki yuzidan o‘pdi.

– *Yaratgan egam o‘zi asragay, – dedi-yu, o‘pkasi to‘lib, davom etdi: – Hayotim poyonida izlay-izlay arang topgan yorug‘ yulduzim. G‘urbatli kunlarimni, qorong‘u tunlarimni yoritgan shamchirog‘im. Nadomatlar bo‘lg‘aykim, seni baxtli qilolmadim. Kechir meni, yorug‘ yulduzim...*
(O.Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi)

Mazkur matn orqali anglashilgan “iltifot” nutqiy harakatining freym tahlili quyidagicha:

- adresant (iltifot ko‘rsatuvchi shaxs): oshiq (Mirzo Ulug‘bek);
- adresat (iltifot yo‘naltirilgan shaxs): ma‘shuqa (Bibi Yulduz);
- obyekt (iltifot asoslangan jihat, xususiyat): yorning go‘zalligi, oshiqning unga bo‘lgan sof samimiy tuyg‘ulari;
- nutqiy ifoda shakli (iltifotni yuzaga chiqaruvchi lisoniy birliklar): *yorug‘ yulduzim, qorong‘u kunlarni yoritgan shamchirog‘im* (oshiqning yoriga shunday vositalar bilan murojaat qilishi)
- kommunikativ maqsad (iltifotdan ko‘zlangan niyat): oshiq o‘z yorini baxtli qilolmaganligi uchun chuqur nadomatda ekanligini ifodalash;

Yuqorida guvohi bo‘lganimizdek, “iltifot” tushunchasi badiiy matnda turli freymlarni hosil qiladi. Badiiy matnning freym tahlili natijasida o‘zbek madaniyatiga xos turli qadriyatlar jonlantiriladi va ular milliy timsollar, obrazlarda aktuallashadi.

Freym kommunikativ vaziyatni tashkil etish va lisoniy shaxsning muayyan voqea-hodisalardagi ishtirokini belgilovchi tamoyillarga asoslanadi. Freym tahlili bilimning tuzilmaviy va funksional jihatdan modellashtirishdagi ahamiyatini o‘zida namoyon qiladi.

Xulosa shuki, freym modeli inson ongining mental va psixik birliklarini, inson bilimi, malaka va tajribasini namoyon etuvchi axborot shaklini ifodalaydi, shu bilan birga, shaxsning matn orqali lisnoy omil – voqelikni idrok etishning kognitiv jarayonlarini, ruhiy, ijtimoiy, milliy-madaniy belgilarini, muloqotning diskursiv vazifa va xususiyatlarini ham oydinlashtirishga imkon beradi.

Bizningcha, mazkur ishda keltirilgan mulohazalar muloqot jarayonida yuzaga keladigan nutqiy aktlarning freym modeli va uning lingvokognitiv tahlili masalasi badiiy matnning kommunikativ-diskursiv xususiyatlarini aniqlash va tadqiq qilish vositasi ekanligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Ashurova, M.Galiyeva. Cognitive linguistics. Toshkent, 2018.
2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, “Sangzor”, 2006.
3. Safarov Sh. Semantika. Toshkent, “O‘zME”, 2013.
4. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Toshkent, “Fan”, 2013.
5. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, “Bookmany print”, 2024.
6. Usmanova Sh. Psixolingvistika. Toshkent, “Universitet”, 2014.
7. Jo‘rayeva M. Fransuz va o‘zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Toshkent, “Fan”, 2016.
8. Rahmatova M. Olamning estetik manzarasi: qadriyatlar, madaniyat va til. Махачкала, Издательство “Апробация”, 2021.



Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://aspec.uz>
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

“ACADEMIC SPECTRIUM” ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2026 № - 3-Son (2026-yil, Mart)